O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro`yxatga olindi
№ 60311000-
STA1112-STA1212
«29» 08 2024 y

"TASDIQLAYMAN»
SamDU rektori:
_____R.I.Xalmuradov
«____»_____2024 y

SOTSIOLOGIYA TARIXI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300000 -	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot;
Ta'lim sohasi:	310000 -	Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar;
Ta'lim yo'nalishi:	60311000 -	Sotsiologiya;

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
STA1112 STA1212	2024-2025	1-2	10
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Sotsiologiya tarixi	126	174	300

2. **I. Fanning mazmuni**

O‘quv fanining maqsadi “Sotsiologiya” ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy salohiyatini ta’minlovchi fanning nazariy asoslari bo‘yicha bilimini oshirish, kelgusi amaliy faoliyatda sotsiolog olimlar tajribalari asosida ish yuritish bo‘yicha tasavvur hamda ongli munosabat shakllantirilishini ta’minlashdan iborat.

Fanning vazifalari: Sotsiologiya fanining shakllanish evolyusiyasi, uning nazariy-g‘oyaviy asoslarini o‘zlashtirish hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar uchun muhim manba sifatida o‘tmish ajdodlar ta’limotlaridan etarli xabardor bo‘lmoqlik; talabalarda sotsiologik bilimni dastlabki manbalar yordamida o‘zlashtirishni ta’minlash; sotsiologik ta’limotlarning nazariy asoslari tarixini amaliy tadqiqotlar (hujjatlarni o‘rganish) asosida ilmiy tushunib etishni tashkil etish; tarixiy sotsiologik manbalardan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-BO‘LIM. XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA G‘ARB SOTSIOLOGIYASI

1-mavzu. G‘arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g‘oyaviy-nazariy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari

XIX asr boshlaridagi G‘arb jamiyatshunosligida rivojlanish g‘oyasi. Qiyosiy tadqiqot usullarining shakllanishi. Empirik tadqiqotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. A.Sen-Simonning sotsiologik qarashlari. Ijtimoiy islohotlar to‘g‘risida. Sotsiologiyaning

mustaqil fan sifatida shakllanishining obektiv zaruriyati.

2-mavzu. O.Kont va pozitivistik sotsiologiyaning vujudga kelishi

O.Kont (1798-1857) hayoti va faoliyati. O.Kont pozitiv metodi (ijobiy usuli) ning mohiyati. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi va unda sotsiologiyaning o'rni. O.Kont naturalizmi, pozitiv metodning ijtimoiy hodisalar taraqqiyot yo'nalishi. O.Kont sotsial dinamikasi va sotsial statikasi. Uch bosqich qonuni – O.Kont sotsiologiyasining asosiy qonuni. Sotsiologiya tarixida O.Kont ta'limotining ahamiyati va o'rni.

3-mavzu. G.Spenser va uning tarixiy evolyusion sotsiologik sistemasi

G.Spenser (1820-1903) hayoti va ijodi. G.Spenser nazariy ta'limotining asosiy g'oyalari. Jamiyat organizm ekanligi va evolyusiya umumiy rivojlanish qonuni g'oyasi. Ijtimoiy va biologik organizm o'xshashligi va ular o'rtasidagi tafovutlar. Evolyusiya qonuniyatli organik jarayon sifatida. Zamonaviy jamiyat rivojida G.Spenser qarashlarining ahamiyati.

4-mavzu. Psixologik (ruhiyat) sotsiologiya

Ijtimoiy hayotni biologik vositasida tushuntirishdan qoniqmaslik va sotsiologiyaning ruhiyat tomon burilishga intilishi. Psixologizmi XIX asr oxiri XX boshlaridagi ijtimoiy fanlarning umumiy yo'nalishi sifatida. Xalqlar psixologiyasi. G.Tardning (1843-1904) taqlid nazariyasi. G.Lebonning (1841-1931) guruh psixologiyasi. F.Giddings (1855-1931) va uning asosiy asarlari. U.Mak-Dugallning (1871-1938) instinkt psixologiyasi. CH.Kulining (1864-1929) sotsial-psixologik ta'limoti.

5-mavzu. F.Tyonnis ratsional sotsiologiyasi

F.Tyonnisning (1855-1936) ilmiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati. F.Tyonnisning sotsiologik sistemasi. F.Tyonnis sotsiologiyaning strukturasi haqida. Nazariy sotsiologiyaning vazifalari. Amaliy sotsiologiyaning o'ziga xos xususiyatlari. "Jamoa va jamiyat" – F.Tyonnisning asosiy asari. Jamoa va jamiyatning tafovuti. Jamoa an'anaviy munosabatlarga asoslangan sotsial aloqalar shakli sifatida. Jamiyat shartnomaga asoslangan o'ziga xos sotsial munosabat shakli. Jamoa va jamiyatni farqlovchi ikki iroda xususiyatlari. F.Tyonnis

tomonidan empirik tadqiqotlarning olib borilishi.

6-mavzu. G.Zimmel formal sotsiologiyasi

G.Zimmel (1858-1918) hayoti va ijodi. Uning sotsiologik konsepsiyasining falsafiy va metodologik prinsiplari. G.Zimmel tadqiqotlarining asosiy muammolari. Sotsiologiyaning apriror tarzda amal qiluvchi fan ekanligi. Sotsiologiya predmeti. Sotsial guruhlarning barqarorligi. G.Zimmel tomonidan madaniyat muammolari echimining ishlab chiqilishi. G.Zimmel sotsiologiyasining uning zamondoshlari tomonidan baholanishi.

7-mavzu. E.Dyurkgeymning sotsiologik tizimi

E.Dyurkgeym (1858-1917) ijodiy faoliyatining g'oyaviy-nazariy zaminlari. Uning asosiy asarlari. E.Dyurkgeym sotsiologiyasining predmeti va metodi. Sotsial fakt tushunchasi. Sotsial rivojlanish ta'limoti. O'z-o'zini o'ldirishni tadqiq etish "sotsiologizm" ta'limotini konkret sotsial hodisa tahliliga qo'llanishi sifatida. E.Dyurkgeym tomonidan nazariy va amaliy sotsiologiyani sintezlashga intilish. Sotsial birdamlik tushunchasi. Dinni sotsiologik hodisa sifatida o'rganishda funksional yondashuv. Dyurkgeym sotsiologiyasining hozirgi davrdagi ahamiyati.

8-mavzu. M.Veber sotsiologik ta'limoti

M.Veber (1864-1920) ijodining g'oyaviy-nazariy zaminlari, uning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi. M.Veberning asosiy asarlari. Sotsiologiya predmeti. Sotsial xatti-harakat tushunchasi. Sotsial xatti-harakatning tuzilishi va turlari. "Ideal tip" tushunchasi. "Ideal tip" tarixiy va sotsiologik bilish "asbob-uskunasi" sifatida. Tushunish metodi. M.Veberning ratsionalistik qarashlari. M.Veber tomonidan sotsiologiyaning muhim tarmoqlarini ishlab chiqilishi: iqtisodiy sotsiologiya, din sotsiologiyasi, fan sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, siyosat va madaniyat sotsiologiyasi. Kapitalistik tuzumni talqin qilishda M.Veberning Marksga bildirgan asosli e'tirozlari. M.Veber g'oyalarining hozirgi zamon sotsiologiyasiga ta'siri.

9-mavzu. V.Pareto sotsiologik tizimi

Italiyada sotsiologiya fani rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. V.Paretoning (1848-1923) asosiy asarlari, uning nazariy

qarashlari evolyusiyasi. V.Pareto qarashlariga irratsional va volyuntaristik ta'limotlar ta'siri. Sotsiologiyaning eksperimental va mantiqiy to'g'ri muhokamalarga asoslangan fan sifatida talqin etishi. V.Paretoning siyosiy qarashlari. Uning elita nazariyasi. V.Paretoning G'arb sotsiologiyasiga ta'siri.

II-BO'LIM. XX ASR G'ARBIY EVROPA VA AQSH SOTSIOLOGIYASI

10-mavzu. Sotsiologiyada neopozitivizm yo'nalishi

Sotsiologik neopozitivizm tushunchasi. O.Kont, G.Spenser, J.S.Mill mumtoz merosi – neopozitivizmning g'oyaviy-nazariy asosi. Neopozitivizm sotsiologiyasining asosiy ko'rinishlari. Neopozitivizmning ilk pozitivizm bilan o'xshashliklari va farqlari. Empirizm – XX asr birinchi choragida AQSH sotsiologiyasining etakchi yo'nalishi. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarning roli hamda ularning sotsial reformizm bilan aloqasi. Empirik sotsiologiyaning predmeti va strukturasi. Sotsiologiyadagi nazariy yondoshuvlarning tanqid qilinishi. Sotsiologiyada sotsial eksperiment va modellashtirishning qo'llanilishi. Neopozitivizmning sotsiologiya rivojiga ko'rsatgan ta'siri.

11-mavzu. F.Znanetskiy – AQSH sotsiologiyasining mumtoz vakili

F.Znanetskiyning (1882-1958) sotsiologiyani ob'ekti, predmeti va vazifalari haqidagi qarashlari. F.Znanetskiyning asosiy asarlari. F.Znanetskiy "analitik induksiya" haqida. Umumqamrovli sotsiologik tizimni yaratishga qaratilgan urinishlari.

12-mavzu. Britaniya sotsial antropologiya maktabi

E.A.Vestermark (1862-1939) – ingliz etnografii va sotsiologi. Sotsial institutlarni jamiyat tomonidan idora etiladigan va sanksiyalashtiriladigan o'zaro munosabatlar shakli sifatida talqin etilishi. Vestermark akademik sotsiologiyada dala tadqiqotlari asoschisi sifatida.

A.R.Redkliff-Braun (1881-1955) – XX asr birinchi yarmining mashhur antropologi. B.K.Malinovskiy (1884-1942) – sotsial antropolog va sotsiolog. Avstraliya aborigenlari oilalari tahlili. Jamiyatdagi jarayonlarni komplek psixologik-sotsiologik tahliliga

bag'ishlangan asarlari. Malinovskiy va Redkliff-Braun ijodining so'nggi davrlarida umumsotsiologik konsepsiya yaratishga urinishlari.

13-mavzu. P.Sorokin "analitik" nazariyasi

P.Sorokin (1889-1968) faoliyatining shakllanish asoslari. P.Sorokin faoliyatining Rossiya va AQSH davri. P.Sorokin sotsiologiyaning predmeti, vazifalari va chegaralari haqida. Sotsiologiyada bixevioristik, empirik va tabiiy-ilmiy yondoshuvlarni sintez qilishga harakat. Sotsiologik ob'ektlarni tadqiq etishda miqdoriy tahlilning qo'llanilishi. "Sotsial stratifikatsiya" va "sotsial mobillik" nazariyalarining ishlab chiqilishi. P.Sorokinning ijtimoiy-tarixiy ta'limoti. P.Sorokin tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlari haqida. P.Sorokin ta'limotining sotsiologiya rivojiga ta'siri.

14-mavzu. Ramziy (simvolik) interaksionizm sotsiologiyasi

Simvolik interaksionizm tushunchasi va uni J.Moreno (1889-1974) va J.Mid (1863-1931) nazariy merosi bilan o'zaro aloqasi. "O'zaro ta'sir" – simvolik interaksionizmning asosiy tushunchasi. M.Veber, F.Znanetskiy va G'arb sotsiologiyasi boshqa klassiklarining asarlarida "o'zaro ta'sir" va "simvol" tushunchalarini ishlab chiqilganligi. J.Mid talqinidagi sotsial tajriba mazmuni. «Men» va «Biz» munosabatlari. J.Morenoning individlar o'zaro ta'sirini tushuntirishi. J.Moreno tomonidan sotsiometrik metodning joriy etilishi.

15-mavzu. Sotsiologiyada psixoanalitik (ruhiy tahlil) yo'nalish

Z.Freyd (1856-1939) va uning ruhiy tahlil ta'limoti. Anglanmaganlik nazariyasi: odam haqida bilimlar. Nazariyaning asosiy tushunchalari: "chetlantirish", "simptomlar", "sublimatsiya", "libido", "himoya mexanizmlari" va ularning psixologiya rivojidagi roli. Odamdagi ratsionallik va irratsionallik xususiyatlari. Z.Freydning sotsial pessimizmi. Egoistik mayllarning sotsial Hissiyotlarga aylanishi.

Z.Freydning psixologik reduksionizmi. Z.Freyd izdoshlarining sotsial ta'limotlari. E.Fromm (1900-1980) tomonidan Z.Freyd ta'limotining rivojlantirilishi. E.Fromm shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli haqida. E.Fromm tomonidan begonalashuv masalalarining tadqiq etilishi. Uning «Erkinlikdan qochish» asarining sotsiologik mazmuni.

16-mavzu. R.Aronning sotsiologik konsepsiyasi

R.Aron (1905-1983) hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati. R.Aron sotsiologik konsepsiyasi. R.Aronning o'tmishdoshlar qarashlariga munosabati. R.Aron tomonidan marksizmning tanqid qilinishi. R.Aron ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi. Siyosiy tuzumlar tipologiyasi. Global ijtimoiy muammolar tahlili. R.Aron konsepsiyasining G'arb ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ta'siri.

17-mavzu. T.Parsonsning sotsial tizim nazariyasi

T.Parsons (1902-1979) hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati. T.Parsonsning sotsial tizim nazariyasi shakllanishiga M.Veber, E.Dyurkgeym, A.R.Radkliff-Braun, B.Malinovskiylar g'oyalarining ta'siri. T.Parsonsning umumsotsiologik nazariyani yaratishga urinishi. T.Parsons ta'limotining asosiy tushunchalari. T.Parsons tomonidan sotsial harakat tamoyillarining ishlab chiqilishi. G'arb sotsiologiyasi rivojida T.Parsons ta'limotining ahamiyati.

18-mavzu. R.Merton sotsiologiyasi

Struturaviy-funksional g'oyalarning R.Merton (1910-2003) tomonidan rivojlantirilishi. R.Merton tomonidan "o'rtacha maqom nazariya" va "referent guruhlar" nazariyalarining ishlab chiqilishi. Funksiya va funksional ehtiyoj tushunchalarning o'zaro aloqasi. Yaqqol va latent (yashirin) funksiyalar. Ijtimoiy muammolarning sotsiologik tashhisi.

19-mavzu. Frankfurt maktabining «tanqidiy» sotsiologiyasi

Frankfurt maktabining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, maktabning asosiy vakillari. M.Xorkxeymer (1895-1973) va uning ilgari sotsial falsafa va sotsiologik rivojlanishning tanqidi. M.Xorkxeymerning gegelchilik va neopozitivizmni tanqid qilishi. «Tanqidiy sotsiologiya»ning asosiy g'oyalari va metodologik tamoyillari.

Frankfurt maktabi rivojining "Amerika" davri. M.Xorkxeymer va T.Adorno (1903-1969) sotsiologiyasidagi volyuntaristik jihatlar. Frankfurt maktabining "G'arbiy Germaniya" davridagi rivojlanishi. Nazariy va empirik sotsiologiya nisbati. Empirik tadqiqotda sub'ektiv omilning roli. T.Adorno tomonidan sotsiologiyadagi pozitivistik metodlarni tanqid qilinishi. Frankfurt maktabining turli oqimlari va

ularning o'zaro munosabatlari.

20-mavzu. Sotsial konflikt nazariyasi

R.Darendorf tomonidan jamiyatning konfliktli modeli sotsiologik konsepsiyasining ishlab chiqilishi. L.Kozerning pozitiv-funksional konflikt nazariyasi. Sotsial konflikt tushunchasi. Sotsial konfliktning asosiy funksiyalari. Konflikt tiplari. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy tengsizlik, rollar tengsizligi sotsial konflikt asosi sifatida.

21-mavzu. Fenomenologik sotsiologiya

Fenomenologik sotsiologiyaning g'oyaviy-nazariy manbalari. E.Gusserl (1859-1938) "ekzistensial krizis" (mavjudlik inqirozi) va uning kelib chiqish yo'llari haqida. Sotsiologiyadagi pozitivistik yo'nalish tanqidi. Sotsiologiyada fenomenologik g'oyalar rivojlanishining asosiy bosqichlari. A.SHyus (1899-1959) tomonidan fenomenologiyaning sotsiologiyaga tadbiq etilishini ishlab chiqilganligi. Sotsial harakatni o'rganishda interpritatsiya metodi. Intersub'ektivlik ijtimoiylikning asosi. Kundalik ong tushunchasi. P.Berger va T.Lukmanning bilim sotsiologiyasi. A.Sikurelning "kognitiv sotsiologiya"si. G.Garfinkel (1917-2011) etnometodologiyasi. Etnometodologiya tushunchasi va uning vazifalari. Fenomenologik sotsiologiyaning hozirgi zamon yo'nalishlari.

22-mavzu. Sotsiologiyaning zamonaviy yo'nalishlari

N.Luman (1924-1998) – nemis sotsiologi, neofunksionalizm nazariyotchisi. Lumanning kommunikativ jamiyat konsepsiyasi. Luman ijodida sotsial tizim va sotsial evolyusiya masalalari.

P.Burde (1930-2002) – fransuz sotsiologi. Burde ijodiga M.Veber ta'limotining ta'siri. Burde ta'limotida jamiyat va tabaqalanish masalalari. Burdening siyosiy sotsiologik qarashlari.

E.Giddens (1938 yilda tug'ilgan) – ingliz sotsiologi. "Kapitalizm va zamonaviy ijtimoiy nazariya" (1971) asarida rivojlangan industrial jamiyatlarning sinfiy tuzilishi tahliliga E.Dyurkgeym, M.Veber qarashlarining ta'siri. Globallashuv jarayonlari sotsiologiya rivojining asosiy yo'nalishi sifatida.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar

bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. G'arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g'oyaviy-nazariy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari
2. O.Kont va pozitiv sotsiologiyaning vujudga kelishi
3. G.Spenser va uning tarixiy evolyusion sotsiologik sistemasi
4. Psixologik (ruhiyat) sotsiologiya
5. F.Tyonnis ratsional sotsiologiyasi
6. G.Zimmel formal sotsiologiyasi
7. E.Dyurkgeymning sotsiologik tizimi
8. M.Veber sotsiologik ta'limoti
9. V.Pareto sotsiologik tizimi
10. Sotsiologiyada neopozitizizm yo'nalishi
11. F.Znanetskiy – AQSH sotsiologiyasining mumtoz vakili
12. Britaniya sotsial antropologiya maktabi
13. P.Sorokin "analitik" nazariyasi
14. G.Gurvichning dialektik sotsiologiyasi
15. Ramziy (simvolik) interaksionizm sotsiologiyasi
16. Sotsiologiyada psixoanalitik (ruhiy tahlil) yo'nalish
17. R.Aronning sotsiologik konsepsiyasi
18. T.Parsons sotsial tizim nazariyasi
19. R.Merton sotsiologiyasi
20.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sotsiologiya fani vujudga kelishining asosiy omillari
2. O.Kont pozitivistik sotsiologiyasida uch bosqich qonunining ahamiyati
3. G.Spenserning «sotsial institut» haqidagi ta'limoti
4. Sotsial darvinistik maktab va uning asosiy tamoyillari
5. Geografik maktab va uning asosiy namoyondalari
6. Irqiy antropologik maktabning asosiy tamoyillari
7. Mexanistik maktab
8. Bioorganik maktab
9. Shteyntalning "xalqlar psixologiyasi"
10. G.Tardning taqlid nazariyasi
11. G.Lebonning guruh psixologiyasi
12. F.Giddings ijtimoiy qarashlari
13. U.Mak-Dugallning instinkt psixologiyasi

14. Ch.Kulining sotsial-psixologik ta'limoti
15. F.Tyonnisning «Jamoa va jamiyat» asari
16. G.Zimmelning sotsiologiya predmeti haqidagi fikrlari
17. E.Dyurkgeymning "O'zini o'zi o'ldirish" asarini e'lon qilishi sabablari
18. E.Dyurkgeymning din sotsiologiyasi bo'yicha asarlari
19. M.Veberning «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari
20. V.Paretoning ijtimoiy tengliksizlik haqidagi fikrlari
21. Sotsiologiyada neopozitizizm yo'nalishi vujudga kelishining asosiy sabablari
22. Chikago maktabi
23. Kolumbiya maktabi
24. E.A.Vestermark sotsiologik nazariyasi
25. A.R.Redkliff-Braun sotsiologik nazariyasi
26. B.K.Malinovskiy sotsiologik nazariyasi
27. F.Znanetskiyning asosiy asarlari tavsifi
28. P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi
29. P.Sorokinning asosiy asarlari tavsifi
30. G.Gurvichning sotsiologik konsepsiyasi
31. Ramziy (simvolik) interaksionizmning asosiy sotsiologik mazmuni
32. Z.Freyd sotsiologiyada psixotahlil yo'nalishi asoschisi
33. E.Fromm neofreydizmi
34. R.Aronning sotsiologik konsepsiyasi
35. T.Parsons strukturaviy-funksionalizm asoschisi
36. R.Mertonning sotsiologiya predmeti haqidagi xulosalari
37. "Tanqidiy" sotsiologiyaning asosiy g'oyalari
38. R.Darendorfning jamiyatning konfliktli modeli
39. L.Kozerning sotsial konflikt nazariyasi
40. A.Shyusning fenomenologik sotsiologiyani rivojlantirish g'oyalari
41. P.Berger va T.Lukmanning bilim fenomenologik sotsiologiyasi
42. J.Xomansning ijtimoiy ayirboshlash nazariyasi
43. E.Giddensning sotsiologik konsepsiyasi
44. Sotsiologiyada ratsional tanlov nazariyasi
45. N.Lumanning kommunikativ jamiyat konsepsiyasi
46. Burdening siyosiy sotsiologik qarashlari

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Sotsiologiya tarixi sotsiologik g‘oyalar, nazariyalar, maktablar, yo‘nalishlar tarixi bo‘lib, bo‘lajak malakali sotsiolog mutaxassislarni tayyorlashda mazkur fanning o‘z o‘rni mavjud. Dasturda sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi tarixi ilk mumtoz, kechki mumtoz va zamonaviy bosqichlarda berilgan bo‘lib, bunda har bir bosqichning ilg‘or sotsiologik qarashlari o‘z o‘rnini topgan. Sotsiologiya tarixi fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiri¬ladigan masalalar doirasida talaba: – “Sotsiologiya tarixi” fanining ob’ekti va predmeti; sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi jarayoni; sotsiologik yo‘nalish va maktablarni vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari; sotsiologik g‘oyalarning asosiy oqimlari evolyusiyasining xususiyatlari va tendensiyalari; turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo‘lgan sotsiologik fikrlar va ta’limotlarning jamiyat rivojiga ta’siri haqida **tasavvurga ega bo‘lishi;** – turli sotsiologik konsepsiyalar va ularning xulosalarini metodologik tahlil qilish; turlicha sotsiologik nazariyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olish va ulardan amaliyotda foydalana olish; sotsiologik ta’limotlarning rivojlanishidagi o‘rganilayotgan qonuniyatlar negizida jamiyatni isloh qilish bilan bog‘liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash; ijtimoiy islohotlarni nazariy jihatdan asoslash hamda amalga oshirishning xorijiy va mamlakatimizdagi tajribalari natijalarini baholash; turli davrlardagi sotsiologik g‘oyalarni umumlashtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va yangi sotsiologik konsepsiyalarni yarata olish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Klaster”, “Bumerang”, “Fikrlar hujumi”, “Munozarali dars”, “FSMU” singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi va mashg‘ulotlardagi ma’lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish,

	tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Normurodov B.N.,Normurodova G.N. Sotsiologiya tarixi. T. Fan, 2008. 2. Geddens E. Sotsiologiya. T. Fan va texnologiyalar, 2015. 3. Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии: учебное пособие. – М.: КДУ, 2008. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) . – Toshkent, 2017. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablarini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi” PQ-2752- sonli qarori // www.lex.uz. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Farmoni. – Toshkent, 2019. 4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi 05.06.2018 y.N PQ-3775Qarori. – Toshkent, 2018. 5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017. 6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017. 7. Heinz Maus. A Short History of Sociology. Routledge, 1998.

8. Joas H., Knobl W. Sozial theorie. Frankfurt/M: Suhrkamp, 2004.
9. Kon Igor. A History of Classical Sociology. Progress Publishers, Moscow, 1989.
10. История теоретической социологии: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.

Axborot manbalari (saytlar):

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus vazirligining portali.
3.

7. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

M.B.Sherov – SamDU, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti

8. **Taqrizchilar:**

R.K.Yusupov – SamDU, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti (ichki)

Yu.Salimov. - Samarqand viloyat mahallalar uyushmasi direktor o`rinbosari sotsiologiya fanlari nomzodi (tashqi)

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri — **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani — **prof. A.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor — **prof. A.Soleyev**

"Kelishilgan"

SamDU o'quv-klubiy boshqarma boshlig'i: _____ Sh.Muranov

"___" _____ 2024 yil

Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti M.B.Sherov tomonidan tayyorlangan 60311000-Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Sotsiologiya tarixi" o'quv fani dasturiga

TAQRIZ

Ushbu o'quv fani dasturida sotsiologiya fanining vujudga kelishi va bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish tarixi xronologik ketma-ketlikda taqdim etilgan. Sotsiologiya tarixi sotsiologik g'oyalar, nazariyalar, maktablar, yo'nalishlar tarixi bo'lib, bo'lajak malakali sotsiolog mutaxassislarni tayyorlashda mazkur fanning o'z o'rni mavjud. O'quv fani dasturida sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi tarixi ilk mumtoz, kechki mumtoz va zamonaviy bosqichlarda berilgan bo'lib, bunda har bir bosqichning ilg'or sotsiologik qarashlari o'z o'rnini topgan.

Sotsiologiya tarixi fanining shakllanish evolyusiyasi, uning nazariy-g'oyaviy asoslarini o'zlashtirish hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar uchun muhim manba sifatida o'tmish ajdodlar ta'limotlaridan etarli xabardor bo'lish; talabalarda sotsiologik bilimni dastlabki manbalar yordamida o'zlashtirishni ta'minlash; sotsiologik ta'limotlarning nazariy asoslari tarixini amaliy tadqiqotlar (hujjatlarni o'rganish) asosida ilmiy tushunib etishni tashkil etish; tarixiy sotsiologik manbalardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

"Sotsiologiya tarixi" fanining ob'ekti va predmeti; sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi jarayoni; sotsiologik yo'nalish va maktablarni vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari; sotsiologik g'oyalarning asosiy oqimlari evolyusiyasining xususiyatlari va tendensiyalari; turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo'lgan sotsiologik fikrlar va ta'limotlarning jamiyat rivojiga ta'siri haqida, sotsiologik tahlilning asosiy qoidalari va muammolarini ajrata olishni; turli sotsiologik maktab va yo'nalishlar vakillari tomonidan ilgari surilgan sotsiologik fikr va g'oyalarning talqin etilishi evolyusiyasini kuzatishni; sotsiologik nazariya va tadqiqotlar amaliyotining o'zgarishidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib berishni;

sotsiologiyada empirik sotsiologik tadqiqot usullarining shakllanishi va riojlanishi tendensiyalarini; sotsiologik maktablar g'oyalariga e'tiborning kuchayishi va susayishi sabablarini; ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan ilg'or sotsiologik g'oyalardan foydalana olishi hamda turli sotsiologik konsepsiyalar va ularning xulosalarini metodologik tahlil qilish; turlicha sotsiologik nazariyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olish va ulardan amaliyotda foydalana olish; sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishidagi o'rganilayotgan qonuniyatlar negizida jamiyatni isloh qilish bilan bog'liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash; ijtimoiy islohotlarni nazariy jihatdan asoslash hamda amalga oshirishning xorijiy va mamlakatimizdagi tajribalari natijalarini baholash; turli davrlardagi sotsiologik g'oyalarni umumlashtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va yangi sotsiologik konsepsiyalarni yarata olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Albatta, ushbu o'quv dasturning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Mavzularni yanada kengroq ko'rinishida ko'paytirish zarur deb xisoblayman. Chunki, ushbu fan ijtimoiy-madaniy jihatdan xozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolari echimini topishga xizmat qiladi deb xisoblayman.

Ammo, yuqoridagi kamchilik yaratilgan o'quv fan dasturining mohiyati va mazmuniga ta'sir etmagan. Shuning uchun ushbu fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy boshqarmaga tasdiqlash uchun tavsiya beraman.

Viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi "Handlikka ko'maklashish, tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish" bo'limi boshlig'i, sotsiologiya fanlari nomzodi

Salimov Yu.G'.

Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti Sherov M.B. tomonidan tayyorlangan 60311000-Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Sotsiologiya tarixi" o'quv fani dasturiga

TAQRIZ

Sotsiologiya fanining shakllanish evolyusiyasi, uning nazariy-g'oyaviy asoslarini o'zlashtirish hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar uchun muhim manba sifatida o'tmish ajdodlar ta'limotlaridan etarli xabardor bo'lish, talabalarda sotsiologik bilimni dastlabki manbalar yordamida o'zlashtirishni ta'minlash, sotsiologik ta'limotlarning nazariy asoslari tarixini amaliy tadqiqotlar (hujjatlarni o'rganish) asosida ilmiy tushunib etishni tashkil etish, tarixiy sotsiologik manbalardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar bo'lajak sotsiolog mutaxassislar juda muhim sanaladi. Ana shuning uchun ham mazkur fanni malaka talablariga kiritilishi sotsiologiya nuqtai nazaridan ushbu standartni ilmiy jihatdan yanada saviyasini oshirishiga sabab bo'lgan deb xisoblayman.

Mazkur o'quv fan dasturi o'quv dasturlariga qo'yilgan talablar asosida tuzilgan bo'lib, barcha bandlari mantiqan to'g'ri joylashtirilgan. O'quv fan dasturining asosiy qismida sotsiologiya fanining vujudga kelishi va bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish tarixi xronologik ketma-ketlikda taqdim etilgan. Sotsiologiya tarixi sotsiologik g'oyalar, nazariyalar, maktablar, yo'nalishlar tarixi bo'lib, bo'lajak malakali sotsiolog mutaxassislarni tayyorlashda mazkur fanning o'z o'rni mavjud.

Ammo, yuqoridagi kamchilik yaratilgan o'quv fan dasturining mohiyati va mazmuniga ta'sir etmagan. Shuning uchun ushbu fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy boshqarmaga tasdiqlash uchun tavsiya beraman.

Samarqand davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar
fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish"
kafedrasi dotsenti **R.K.Yusupov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY SIYOSIY FANLAR FAKULTETI